



2020-yil 1-may holatiga ko‘ra yuridik shaxs bo‘lgan korxona va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi bandligini va daromadlarni oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo’llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatdan o’tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilish, hal etishda ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantrishni qo’llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o’tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o’tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 1 257 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 154 taga ko‘pdir.

Natijada, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 028 ta (25,0 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiyligi soni 15 125 tani tashkil etgan.




Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra 15 125 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 30,1 % savdo, 13,0 % sanoat, 9,6 % qurilish, 13,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 21,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'aliklaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlikda		01.05.2020 yil	
	01.05.2019 y.	01.05.2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	12 097	15 125	125,0	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 460	2 002	137,1	13,2
Sanoat	1 562	1 961	125,5	13,0
Qurilish	1 114	1 445	129,7	9,6
Savdo	3 228	4 556	141,1	30,1
Tashish va saqlash	616	619	100,4	4,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	779	960	123,2	6,3
Axborot va aloqa	166	189	113,8	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	135	163	120,7	1,1
Boshqa turlari	3 037	3 230	106,3	21,4

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 333 ta), Sirdaryo (2 236 ta), Sayxunobod (1 233 ta) va Mirzaobod (1 207 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shirin shahri (358 ta) hamda Sardoba (685 ta) tumanida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 14 112 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 752 ta (24,2 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 30,0 % savdo, 13,0 % sanoat, 9,7 % qurilish, 13,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 21,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 012 ta), Sirdaryo (2 019 ta), Sayxunobod (1 203 ta), Boyovut (1 090 ta) va Mirzaobod (1 144 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shirin shahri (329 ta), Sardoba (666 ta) hamda Oqoltin (759 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



birlikda

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 257 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 14,0 foizga ko'pdir.

Yanvar–aprel oylarida yangi tashkil etilgan

korxona va tashkilotlarning


2016-2020 yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (231 ta), Oqoltin (154 ta), Sirdaryo (143 ta), Mirzaobod (121 ta) va Boyovut (121 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Shirin shahri (33 ta), Xovos (83 ta) hamda Guliston (89 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (529 ta), sanoat (196 ta), qurilish (67 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (286 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (8 ta), axborot va aloqa (10 ta) hamda tashish va saqlash (15 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tijorat korxonalari
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-may holatiga ko'ra 11 996 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2 949 ta, oilaviy korxonalar -279 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –8 459 ta va boshqalar 309 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Mas'uliyati
cheklangan jamiyati




Xususiy
korxona



Oilaviy
korxona




Unitar
korxona



Aksiyadorlik
jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 168 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga yoki 41,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-may holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 168 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqoriisi Sirdaryo (54 ta), Guliston shahri (38 ta), Yangiyer shahri (20 ta) va Sayxunobod (12 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami esa Shirin shahri (5 ta), Guliston (4 ta) hamda Oqoltin (3 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 110 tasi qo'shma korxonalar, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faoliik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	168	100,0
Oqoltin tumani	3	1,8
Boyovut tumani	7	4,2
Sayxunobod tumani	12	7,1
Guliston tumani	4	2,4
Sardoba tumani	7	4,2
Mirzaobod tumani	10	5,9
Sirdaryo tumani	54	32,1
Xovos tumani	8	4,8
Guliston shahar	38	22,6
Shirin shahar	5	3,0
Yangiyer shahar	20	11,9


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil 1-may holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11 932 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-may holatiga ko'ra qaraganda 28,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 491 tasi (29,3 %) Guliston shahri, 1 746 tasi (14,6 %) Sirdaryo, 1 027 tasi (8,6 %) Sayxunobod hamda 980 tasi (8,2 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11 932 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4 215 tasi (35,3%) - savdo, 1 800 tasi (15,1 %) - sanoat, 1 365 tasi (11,4 %) - qurilish, 1 818 tasi (15,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 890 tasi (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 547 tasi (4,6 %) - tashish va saqlash, 167 tasi (1,4 %) – axborot va aloqa sohasi, 112 tasi (0,9 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1 018 tasi (8,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 228 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,5 foizga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (220 ta), Oqoltin (153 ta), Sirdaryo (137 ta) va Mirzaobod (120 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Shirin shahri (32 ta), Guliston (88 ta) hamda Xovos (80 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (528 ta), sanoatda (196 ta), qurilishda (67 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (286 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (8 ta), axborot va aloqada (10 ta) hamda tashish va saqlashda (15 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 304 tani tashkil etib, ulardan 279 tasi yoki 91,8 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 50,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 45,2 % yoki 126 tasi sanoat, 15,1 % yoki 42 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,4 % yoki 43 tasi savdo, 19,4 % yoki 54 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,3 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 0,7 % yoki 2 tasi, qurilish hamda 3,6 % yoki 10 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarini soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	100	100,0
Oqoltin tumani	66	66,0
Boyovut tumani	3	3,0
Sayxunobod tumani	-	-
Guliston tumani	10	10,0
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	4	4,0
Sirdaryo tumani	1	1,0
Xovos tumani	6	6,0
Guliston shahar	8	8,0
Shirin shahar	1	1,0
Yangiyer shahar	1	1,0

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Sanoat




Savdo




Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Qurilish



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 50,0 % yoki 50 tasi sanoat, 16,0 % yoki 16 tasi savdo, 8,0 % yoki 8 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,0 % yoki 2 tasi qurilish, 20,0 % yoki 20 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 4,0 % yoki 4 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborotma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdag'i "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel: (67)225-31-00